PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ITALYAN ADABIYOTIDA MILLIY MENTALITETNING TIL VOSITALARI ORQALI IFODALANISHI

Norova Farxunda Firdavsovna
SamDCHT Roman-German tillar fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish (italiyan tili) yo'nalishi
1-bosqich 2025-guruh talabasi
farxundanorova@gmail.com
+998979366562
Ilmiy rahbar: **Karayeva Diyora Marufovna**
https://doi.org/10.5281/zenodo.21212878

Annotatsiya. Ushbu maqolda Italiyan adabiyotida milliy mentalitetning til vositalari orqali ifodalanishi tahlil qilinadi. Maqolada asosiy maqsad -milliy mentalitet tushunchasining mazmuni, mohiyati, uning badiiy adabiyotdagi namoyon bo'lish shakllari hamda mashhur italyan yozuvchilarining asarlarida qo'llangan leksik,frazeologik va stilistik vositalar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, italyan xalqining madaniy qadriyatlari,urf-odatlari va dunyoqarashi badiiy matnlarda qanday aks etishi yoritiladi.
Kalit so'zlar. Milliy mentalitet, italyan adabiyoti, til vositalari, lingvomadaniyat, badiiy matn, leksik birliklar, frazeologiya, stilistika.

THE EXPRESSION OF NATIONAL MENTALITY THROUGH LINGUISTIC MEANS IN ITALIAN LITERATURE

Abstract. This article examines the exspression of national mentality through linguistic means in Italian literature. The study explores the concept of national mentality, its manifestation in literary works and the lexical, phraseological and stylistic devices used by Italian writers. Particular attention is paid to the way the cultural values, traditions and worldview of the Italian people are reflected in literary texts.
Key words. National mentality, Italian literature, linguistic means, linguoculturology, literary text, lexical units, phraseology, stylistics.

Kirish. Har bir xalqning milliy mentaliteti uning tili, madaniyati, urf-odatlari va adabiyotida o'z aksini topadi. Adabiyot xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi va qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda qo'llaniladigan til vositalari orqali xalqning dunyoqarashi, hayot tarzi va milli xarakteri yaqqol namoyo bo'ladi.

Asosiy qism. Milliy mentalitet muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakklangan dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlari, axloqiy me'yorlari va fikrlash tarzining majmuidi. U xalqning kundalik turmushi, ijtimoiy munosabatlari, madaniyati hamda tilida o'z aksini topadi. Shu sababli milliy mentalitetni o'rganishda til va adabiyot muhim manba hisoblanadi.

Til xalqning madaniy tajribasini saqlovchi va avlodga yetkazuvchi asosiy vositadir. Badiiy adabiyotda qo'llanilgan so'zlar, iboralar, metaforalar, diologlar va boshqa tasviriy vositalar muallif yashagan davrning ijtimoiy-madaniy muhitini yoritadi. Natijada o'quvchi nafaqat asar mazmuni, balki xalqning dunyoqarashi va qadriyatlari haqida ham tasavvur hosil qiladi.

Italyan adabiyotida oila, e'tiqod, adolat, insonparvarlik va san'atga hurmat kabi qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu qadriyatlar qahramonlarning nutqi, ularning o'zaro munosabatlari va muallifning badiiy tasvirlari orqali ifodalanadi. Ayniqsa, Dante Aligyerining „Ilohiy komediya'' hamda Alessandro Mnzonining „I Promessi Sposi'' asarlarida italyan xalqining ma'naviy dunyosi va milliy o'ziga xosligi yorqin namoyon bo'ladi.

Dante Aligyerining ,,Ilohiy komediya'' asari italyan xalqining diniy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan yirik adabiy yodgorlik hisoblanadi. Asar nafaqat badiiy mazmuni, balki tilining boyligi va milliy o'ziga xosligi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Dante lotin tili o'rniga xalq tilida ijod qilgani tufayli italyan adabiy tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Asarda milliy mentalitetini ifodalovchi asosiy til vositalaridan biri ramziy ifodalardir. Muallif do'zax ,A'rof va jannat obrazlari orqali insonning axloqiy kamoloti, adolat, e'tiqod va vijdon kabi tushunchalarni badiiy shaklda yoritadi. Ushbu ramzlar o'rta asr Italya jamiyatining diniy dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Dante Aligyeri ,,Ilohiy komediya'' asarida milliy mentalitetni ifodalash uchun turli badiiy va lingvistik vositalardan mohirona foydalangan. Asarda metafora, ramz, epitete,taqqoslash va diniy leksika muallif g'oyasini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Asarning mashhur boshlanish satri ,,Nel mezzo del cammin di nostra vita'' ushbu misrada ,,nostra vita'' ,, bikmasi bizning hayotimiz'' birikmasi alohida e'tiborga loyiq . Muallif ,,mening hayotim'' emas, balki ,, bizning hayotimiz'' iborasini qo'llash orqali inson hayotini umumiy qadriyat sifatida talqin qiladi. Bu italyan madaniyatida jamoaviylik, birdamlik va umumiy ma'naviy qadriyatlarga berilgan yuksak bahoni ifodalaydi. Yana bir mashhur misra ,,L'amore che move il sole e l'altre stelle.'',,Quyosh va boshqa yulduzlarni harakatga keltiruvchi kuch-muhabbatdir.''Mazkur jumlada ,,amore'' so'zi insoniy tuyg'u sifatidagina emas , balki butun olamni boshqaruvchi oliy kuch sifatida tasvirlanadi. Bu metaforik ifoda italyan adabiyotida muhabbat,ezgulik va ma'naviy poklikning yuksak qadriyat ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Alessandro Manzonining ,,I Promessi Sposi'' ,,Unashganlar'' romani italyan adabiyotining eng mashhur asarlaridan biri bo'lib, unda xalqining turmush tarzi, diniy e'tiqodi va axloqiy me'yorlari badiiy til vositalari orqali tasvirlangan. Roman XIX asr italyan adabiy tilning shakllanishida muhim o'rin egallaydi hamda milliy birlik g'oyalarini targ'ib etgan asarlardan biri hisoblanadi. Asarda Luca va Renzo obrazlari orqali halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik va oilaga sadoqat kabi qadriyatlar yoritiladi. Ushbu qadriyatlar italyan xalqining milliy mentalitetining muhim tarkibiy qismlaridan sanaladi. Roman boshida uchraydigan mashhur jumla ,, Quel ramo del lago di Camo'' ,, Komo ko'lining o'sha tarmog'i'' ushbu tasvir Italya tabiatining go'zalligini namoyon etish bilan birga, voqealar sodir bo'ladigan milliy-makonni ham belgilaydi. Romanda diniy mazmundagi ,,Provvidenza'' ,,Ilohiy iroda'', ,,carita'' ,,mehr oqibat'' , ,,giustizia'' ,,adolat'' kabi leksik birliklar tez-tez uchraydi. Bu so'zlar jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Dante Aligyeri va Alessandro Manzoni italyan adabiyotining turli tarixiy davrlarida yashab ijod qilgan bo'lsalar-da, ularning asarlarida italyan xalqining milliy mentaliteti, ma'naviy qadriyatlari va madaniy an'analari muhim o'rin egallaydi. Biroq ushbu g'oyalar har ikki adib tomonidan turlicha til vositalari orqali ifodalangan. Dante Aligyerining ,,Ilohiy komediya'' asari diniy-falsafiy ruhdagi epopeya bo'lib, unda allegoriya, metafora va diniy leksika ustunlik qiladi. Dante milliy mentalitetni ezgulik va yovuzlik, gunoh va najot ,adolat va vijdon tushunchalari orqali yoritadi.

Alessandro Manzonining ,,I Promessi Sposi'' romani esa realistik uslubda yozilgan bo'lib, unda mehnatsevarlik, sabr-toqat va oila qadri ulug'lanadi.Muallif xalqona iboralar, tabiiy diologlar va sodda uslub orqali milliy qadriyatlarni ochib bergan.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijasida italyan adabiyotida milliy mentalitetning til vositalari orqali ifodalanishi Dante Aligyerining ,,Ilohiy komediya'' va Alessandro Manzoning ,,I Promessi Sposi'' asarlari misolida tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, har ikki adib leksik birliklar, ramzlar, metaforalar va badiiy tasvir vositalari orqali italyan xalqining milliy qadriyatlari, ma'naviy dunyosi va madaniy o'ziga xosligini yoritgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va adiblar ro'yxati.

1. Dante Alegyeri. ,,Divina Commedia.'' Folino.1472-yil.
2. Alessandro Manzoni. ,,I Promessi Sposi.'' Milano.1821-1840-yil.